



<https://doi.org/10.70728/b.series.fil.v08.i06.131>

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA "ILOHIYLIK" KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK IFODASI

Muxtorjon Baxtiyarov,

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, (PhD) dotsent
bahtiyarov76@mail.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillarida "ilohiylik" konseptining lingvokulturologik ifodasi qiyosiy-tahliliy usulda o'rganiladi. Konseptual tahlil, semantik maydon tahlili va etnolingvistik tahlil metodlaridan foydalanib, ikki tilning diniy-madaniy kontekstida ushbu konseptning leksik, frazeologik va paremik ifodalanish xususiyatlari aniqlandi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, "ilohiylik" konsepti ikki tilda ham yadro-periferiya tuzilishiga ega universal mental birlik bo'lib, lekin uning milliy-madaniy ifodalanish shakllari, emotiv-qadriyat qatlamlari va metaforik modellarida muhim farqlar mavjud. O'zbek tilidagi islomiy, tasavvufiy va qadimgi turkiy qatlamlar hamda ingliz tilidagi hind-yevropa, protestant teologiyasi va zamonaviy sekular ta'sirlar konseptning turlicha lingvokulturologik manzarasini shakllantirganligi isbotlandi.

Kalit so'zlar: *lingvokulturologiya, konsept, ilohiylik, qiyosiy tahlil, kognitiv metafora, semantik maydon, diniy leksika.*

Abstrakt. This article examines the linguocultural expression of the concept of "Divinity" in Uzbek and English languages through a comparative-analytical approach. Employing conceptual analysis, semantic field analysis, and ethnolinguistic analysis, the lexical, phraseological, and paremiological features of this concept are identified within the religious-cultural context of both languages. The study reveals that while "Divinity" constitutes a universal mental unit with a core-periphery structure in both languages, significant differences exist in its national-cultural expressions, emotive-axiological layers, and metaphorical models. It is established that the Islamic, Sufi, and archaic Turkic strata in Uzbek versus the Indo-European, Protestant theological, and modern secular influences in English produce distinctly different linguocultural landscapes of the concept.

Keywords: *linguoculturology, concept, divinity, comparative analysis, cognitive metaphor, semantic field, religious lexis.*

Kirish. Zamonaviy lingvokulturologiyada konsept tushunchasi markaziy metodologik kategoriya hisoblanadi. Yuriy Stepanov (1997) konseptni “madaniyatni aks ettiruvchi, tarixiy shakllanuvchi, milliy tajribani kodlovchi murakkab mental birlik” sifatida ta’riflagan bo‘lsa²²¹, Yevgeniy Kubryakova (2004) uni bilim tuzilmasini aks ettiruvchi kognitiv qurilma sifatida tavsiflaydi²²². Ikki xil ta’rif — lingvokultural va kognitiv — bir-birini to‘ldiruvchi yondashuvlar sifatida zamonaviy konseptologiyada birga qo‘llaniladi. “Ilohiylik” konsepti insoniyatning eng universal va eng qadimgi konseptual domenlaridan biri bo‘lib, barcha madaniyatlar va tillar uchun umumiy bo‘lgan transsendental tajribani ifodalaydi. Biroq ushbu universal tajribaning har bir tilda o‘ziga xos lingvistik ifodalanishi mavjud: Rudolf Otto ta’kidlaganidek, ilohiy his universal bo‘lsa ham, uning tildagi aksi madaniyatga chuqur bog‘liqdir²²³. Shu nuqtai nazardan o‘zbek va ingliz tillarida bu konseptni qiyosiy o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek tilidagi “ilohiylik” konsepti islom teologiyasi, tasavvuf falsafasi va qadimgi turkiy e’tiqodlarning qatlamlanishidan iborat bo‘lsa, ingliz tilidagi “Divinity” konsepti hind-yevropa mifologiyasi, xristian teologiyasi va zamonaviy secular dunyoqarashning kesishmasida joylashadi. Ushbu asosiy farq ikki tilning diniy-madaniy tajribasidagi tub tafovutni aks ettiradi va qiyosiy lingvokulturologik tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek va ingliz tillarida “ilohiylik” konseptining semantik maydonini, kognitiv metaforik modellarini va milliy-madaniy ifodalanish xususiyatlarini qiyosiy-lingvokulturologik tahlil asosida aniqlash. Shu o‘rinda aytish mumkinki, birinchi marta o‘zbek va ingliz tillarida “ilohiylik” konsepti yadro-periferiya modeli, NSM metodologiyasi va kognitiv metafora nazariyasi birikmasida qiyosiy tarzda tahlil qilinmoqda. Tadqiqot natijalari diniy tarjima nazariyasi, leksikografiya va lingvomadaniy ta’lim uchun amaliy asos yaratadi.

Mavzuni yoritishda quyidagi metodlar majmuasidan foydalanildi: konseptual tahlil metodi (Stepanov, 1997; Kubryakova, 2004)²²⁴ konseptning tuzilishi, mazmuni va madaniy-semiotik belgilarini aniqlash uchun qo‘llandi. Semantik maydon tahlili metodi (Trier, 1931; Karaulov, 1987)²²⁵ “ilohiylik” konsepti atrofidagi leksik birliklarning yadro-periferiya munosabatlarini belgilashga xizmat qildi. Вежбицкая А. va Годдард К. ishlab chiqqan NSM (Natural Semantic

²²¹ Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры / Ю. С. Степанов. — Москва : Языки русской культуры, 1997. — 824 с.

²²² Кубрякова Е. С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке / Е. С. Кубрякова. — Москва : Языки славянской культуры, 2004. — 560 с.

²²³ Отто Р. Священное: об иррациональном в идее божественного / Р. Отто. — Бреслау : Trewendt und Granier, 1917. — 258 с.

²²⁴ Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры / Ю. С. Степанов. — Москва : Языки русской культуры, 1997. — 824 с./ Кубрякова Е. С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке / Е. С. Кубрякова. — Москва : Языки славянской культуры, 2004. — 560 с.

²²⁵ Трир Й. Немецкий словарный запас в смысловой сфере разума / Й. Трир. — Гейдельберг : Winter, 1931. — 347 с./ Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность / Ю. Н. Караулов. — Москва : Наука, 1987. — 263 с.

Metalanguage) metodologiyasi (1996; 2002)²²⁶ diniy terminlarning tillararo qiyosiy semantik tavsifi uchun ishlatildi. Kognitiv metafora tahlili (Lakoff, Johnson, 1980)²²⁷ ikkala tildagi ilohiylik metaforik modellarini aniqlashda asosiy metodologik vosita vazifasini bajardi. Diskurs tahlili metodi esa Qur‘on tarjimalari va Injil matnlarida konseptning ifodalanishini o‘rganishda qo‘llanildi.

Tadqiqot materiallari sifatida o‘zbek tilidagi Qur‘on tarjimalari (Alouddin Mansur, 2001)²²⁸, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” va “Favoyid ul-kibar” asarlari, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (2006-2008)²²⁹ hamda xalq maqollar to‘plamlari tanlandi. Ingliz tilida material sifatida King James Bible (1611)²³⁰, Oxford English Dictionary diniy leksika bo‘limi, British National Corpus (BNC) va COCA (Corpus of Contemporary American English) ma‘lumotlari ishlatildi. Jami 1,240 leksik birlik, 318 frazeologizm va 94 maqol tahlil qilindi.

Semantik maydon tuzilishi: qiyosiy ko‘rinish

Semantik maydon tahlili shuni ko‘rsatdiki, "ilohiylik" konseptining yadro qatlamida ikki tilda ham umumiy leksemalar mavjud, biroq ularning miqdori va semantik hajmi farqlanadi. O‘zbek tilida yadroni Allah, Xudo, Iloh, Rabb, Parvardigor besh leksemasi tashkil etsa, ingliz tilida God, Lord, the Divine, the Almighty, Providence besh leksemasi yadro vazifasini bajaradi. Muhimi shundaki, o‘zbek tilidagi yadro so‘zlari ko‘proq arabcha manbaga (Allah, Iloh, Rabb) tayanib, ularning semantikasi arab teologiyasidagi aniq atributlarni ko‘taradi. Ingliz tilidagi yadro leksikalari esa poligenezisli — ham german (God), ham lotincha (Divine, Providence), ham ibroniycha (Adonai-Lord) manbalardan iborat.

Birinchi periferiya qatlamida o‘zbek tilida Haq, Qodir, Karim, Rahim, Muqaddas, Azaliy, Aziz kabi 38 ta leksema aniqlandi. Ingliz tilida esa Holy, Sacred, Eternal, Omnipotent, Omniscient, Transcendent, Numinous, Ineffable kabi 41 ta leksema birinchi periferiyani tashkil etadi. Ikkinchi periferiya qatlamida o‘zbek tilidagi 112 ta birlik (Taqqdir, Qismat, Rahmat, Inoyat, Qahr, Azob va boshqalar) ingliz tilidagi 97 ta birlik (Grace, Providence, Wrath, Blessing, Judgment, Mercy va boshqalar) bilan qiyoslandi. Shu yerda muhim farq ko‘zga tashlanadi: o‘zbek tilidagi ikkinchi periferiyada *iroda-taqqdir* semantikasi (Taqqdir, Qismat, Nasib) 34% ni tashkil etsa, ingliz tilidagi ikkinchi periferiyada *adolat-mukofot* semantikasi 41% ni egallaydi. Bu farq ikki madaniyatdagi ilohiylik tasavvurining turlicha ekanligini aks ettiradi.

²²⁶ Вежбицкая А. Семантика: примитивы и универсалии / А. Вежбицкая. — Оксфорд : Oxford University Press, 1996. — 500 p. / Годдард К. Значение и универсальная грамматика: теория и эмпирические данные : в 2 т. / К. Годдард, А. Вежбицкая. — Амстердам : John Benjamins, 2002.

²²⁷ Лакофф Дж. Метафоры, которыми мы живём / Дж. Лакофф, М. Джонсон ; пер. с англ. — Москва : Едиториал УРСС, 2004. — 256 с. — (Оригинал: Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. — Chicago : University of Chicago Press, 1980. — 242 p.)

²²⁸ Мансур А. Куръони каримнинг ўзбекча таржимаси / А. Мансур. — Тошкент : Тошкент ислом университети, 2001. — 672 б.

²²⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати : 5 жилдда / [тах. ҳайъати: А. Мадвалиев ва б.]. — Тошкент : Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2006—2008.

²³⁰ The Holy Bible : King James Version. — Oxford : Oxford University Press, 1611/2008. — 1400 p.

Kognitiv metaforik modellar. Lakoff-Johnson metodologiyasi asosida ikkala tilda “ilohiylik” konseptining to‘rtta asosiy kognitiv metaforik modeli aniqlandi. O‘zbek tilida NUR METAFORASI dominant model sifatida namoyon bo‘ldi: Allohning Nuri, hidoyat nuri, imon nuri, Xudo ko‘ngillarga nur sochadi — bu model Qur’oni karimning 24-surasi (“An-Nur”) ga bevosita tayanadi va 44 ta frazeologik birlikda uchraydi. Ingliz tilida esa SHAXSIY EGA METAFORASI dominant hisoblanadi: God our Father, the Lord of all, God reigns, His kingdom come — bu model Protestant teologiyasining shaxsiy Xudo-Ota konsepsiyasini aks ettirib, 51 ta birlikda qayd etildi. O‘zbek tilidagi YUKSAKLIK METAFORASI (Ko‘kka qo‘l uzatmoq, samoviy fayz, osmondagi Alloh) va HIMOIYACHI METAFORASI (Parvardigor, Xudo panohida) ingliz tilidagi YORUG‘LIK METAFORASI (God is light, divine illumination, heavenly radiance) va HUKMRON METAFORASI (Lord of lords, God Almighty) bilan qiyosiy jihatdan tahlil qilinib, umumiy va farqli tomonlari aniqlandi.

Frazeologik va paremik qatlam tahlili. Tahlil qilingan 318 frazeologizm va 94 maqolda konseptning emotiv-qadriyat qatlami ikkala tilda turlicha namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilidagi frazeologizmlarning 67% da *taslimiyat* va *shukrona* semantikasi (Allohgga havola, Allohga shukur, Inshoolloh, Maʼshoalloh) ustun tursa, ingliz tilidagi frazeologizmlarning 58% da ilohiy adolat va individual javobgarlik semantikasi (God helps those who help themselves, In God we trust, Act of God) ko‘proq uchraydi. Bu statistik ko‘rsatkichlar ikki madaniyatdagi ilohiylik tajribasining asosiy farqli jihati — o‘zbek mentalitetida taqdirga taslimiyat va shukrona, ingliz-protestant mentalitetida esa individual intilish va ilohiy adolatga ishonchni lingvistik dalillar asosida tasdiqlaydi.

NSM tahlili asosida “ilohiylik” konseptining ikki tilda o‘xshash semantik primitivlari aniqlandi: GOOD (yaxshi), EXIST (mavjud), DO (qilmoq), KNOW (bilmoq) — bular ikki tilda ham konseptning asosiy semantik yadrosi hisoblanadi. Farqli primitivlar esa FEEL (his qilmoq) va WANT (xohlamok) kombinatsiyalarida namoyon bo‘ldi: o‘zbek tilida ilohiy his ko‘proq FEAR + LOVE (qo‘rquv va sevgi) kombinatsiyasida ifodalansa (Allohdan qo‘rq va uni sev), ingliz tilidagi Protestant an’anasida TRUST + LOVE (ishonch va sevgi) kombinatsiyasi (Trust in God and love Him) ustuvor hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari bir qancha muhim nazariy xulosalarga olib keladi. Birinchidan, “ilohiylik” konseptining ikki tilda ham yadro-periferiya tuzilishiga ega ekanligi Stepanov va Kubryakovaning konsept modellari bilan to‘liq mos tushadi, biroq yadro elementlarining semantik hajmi va qiymat yo‘nalishi farqlanadi. Bu holat konseptning universal tuzilishi bilan milliy-spetsifik mazmunining farqlanishi haqidagi Wierzbicka konsepsiyasini empirik materiallar bilan tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, NUR metaforasining o‘zbek tilidagi dominantligi va SHAXSIY EGA metaforasining ingliz tilidagi ustuvorligi Lakoff-Johnsonning “biz yashaydigan metaforalar”

nazariyasini yangi madaniy material orqali boyitadi²³¹. Bu metaforalar tasodifiy emas: Qur‘on tilining nur semantikasi va Protestant Injilining ota-o‘g‘il munosabat tili tegishli kognitiv madaniy muhitdan kelib chiqqan. Shu ma‘noda kognitiv metafora nazariyasi va lingvokulturologiya bir-birini to‘ldiruvchi metodologik yondashuvlar ekanligi isbotlanadi.

Uchinchidan, taslimiyat individual javobgarlik semantikasidagi farq (o‘zbek tilidagi 67% va ingliz tilidagi 58% ko‘rsatkichlar) Max Weberning protestantlik etikasi haqidagi konsepsiyasini tilshunoslik ma‘lumotlari bilan qo‘llab-quvvatlaydi²³². Weber protestant din etikasi kapitalizmni rag‘batlantirdi degan gipotezasini ilgari surgan edi; bizning ma‘lumotlarimiz esa Protestant va islomiy madaniyatlardagi ilohiylik konseptining frazeologik ifodalanishi o‘rtasidagi tafovut uzoq tarixiy diniy an‘analarda ildiz otganini lingvistik dalillar asosida ko‘rsatadi.

Tarjima nazariyasi uchun eng muhim xulosa shundaki, “Taqdir” (o‘zbek) va “Grace” (ingliz) kabi konseptlar bir-birining funksional ekvivalenti bo‘la olmaydi, chunki ularning semantik hajmi, pragmatik yuki va emotiv qatlami tubdan farqlanadi. Dinamik ekvivalentlik prinsipi bu hollarda ziddiyatga duch keladi²³³: tarjimon qabul qiluvchi uchun “oson” tarjimani tanlasa, madaniy-semantik yo‘qotish muqarrar, agar “to‘g‘ri” tarjimani tanlasa, izoh va tushuntirish zaruriyati yuzaga keladi. Bu dilemmaning yechimi sifatida “kalka + izoh”²³⁴ strategiyasi eng maqsadga muvofiq deb topildi.

Xulosa. O‘zbek va ingliz tillarida “ilohiylik” konseptining lingvokulturologik ifodasini empirik ma‘lumotlar asosida o‘rganish quyidagi xulosalarni berdi: “Ilohiylik” konsepti ikki tilda ham yadro-periferiya tuzilishiga ega universal mental birlik bo‘lib, yadroda *transsendentlik*, *qudratlilik* va *yaratuvchilik* belgilari ikkala tilda ham mavjud. Biroq periferiya qatlamlarida ikki tilning diniy-madaniy tajribasini aks ettiruvchi muhim farqlar kuzatiladi: **o‘zbek tilidagi islom-tasavvuf qatlami va ingliz tilidagi protestant-sekular qatlam konseptning milliy-spetsifik manzarasini belgilaydi.**

Kognitiv metaforik modellarni qiyoslash o‘zbek tilidagi NUR metaforasining va ingliz tilidagi SHAXSIY EGA metaforasining dominant ekanligini aniqladi. Bu dominant modellar tegishli madaniyatlarning muqaddas matnlari tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ilhom olganligi isbotlandi. Frazeologik va paremik tahlil esa o‘zbek tilidagi taslimiyat va shukrona semantikasining (67%) ingliz tilidagi individual javobgarlik semantikasiga (58%) nisbatan ustunligini statistik jihatdan tasdiqladi.

²³¹ Лакофф Дж. Метафоры, которыми мы живём / Дж. Лакофф, М. Джонсон ; пер. с англ. — Москва : Едиториал УРСС, 2004. — 256 с. — (Оригинал: Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. — Chicago : University of Chicago Press, 1980. — 242 p.)

²³² Вебер М. Протестантская этика и дух капитализма / М. Вебер. — Тюбинген : Mohr, 1904. — 206 с.

²³³ Nida E. A. Toward a science of translating / E. A. Nida. — Leiden : Brill, 1964. — 331 p.

²³⁴ British National Corpus (BNC) [Электронный ресурс] / Oxford Text Archive. — 2007. — Режим доступа : <https://www.natcorp.ox.ac.uk> — Дата обращения: 2024./ Davies M. Corpus of Contemporary American English (COCA) [Электронный ресурс] / M. Davies. — 2008. — Режим доступа : <https://www.english-corpora.org/coca> — Дата обращения: 2024./ Oxford English Dictionary : 2nd ed. — Oxford : Oxford University Press, 1989.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: natijalar diniy-ma’naviy matnlarni o‘zbek-ingliz tarjima amaliyotida, ikki tilli diniy lug‘atlar tuzishda hamda o‘zbeklar va ingliz tilli sohiblar o‘rtasidagi lingvomadaniy muloqot kompetentsiyasini rivojlantirishda bevosita qo‘llanilishi mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun arab tili va boshqa turkiy tillarni qiyoslashtirgan holda uchta tildagi semantik maydonlarni o‘rganish, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi yangi diniy-ma’naviy nutq ko‘rinishlarini korpus metodlari bilan tahlil qilish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры / Ю. С. Степанов. — Москва : Языки русской культуры, 1997. — 824 с.
2. Кубрякова Е. С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке / Е. С. Кубрякова. — Москва : Языки славянской культуры, 2004. — 560 с.
3. Отто Р. Священное: об иррациональном в идее божественного / Р. Отто. — Бреслау : Trewendt und Granier, 1917. — 258 с.
4. Трир Й. Немецкий словарный запас в смысловой сфере разума / Й. Трир. — Гейдельберг : Winter, 1931. — 347 с./ Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность / Ю. Н. Караулов. — Москва : Наука, 1987. — 263 с.
5. Вежбицкая А. Семантика: примитивы и универсалии / А. Вежбицкая. — Оксфорд : Oxford University Press, 1996. — 500 р./ Годдард К. Значение и универсальная грамматика: теория и эмпирические данные : в 2 т. / К. Годдард, А. Вежбицкая. — Амстердам : John Benjamins, 2002.
6. Лакофф Дж. Метафоры, которыми мы живём / Дж. Лакофф, М. Джонсон ; пер. с англ. — Москва : Едиториал УРСС, 2004. — 256 с. — (Оригинал: Lakoff G., Johnson M. *Metaphors we live by*. — Chicago : University of Chicago Press, 1980. — 242 p.)
7. Мансур А. Қуръони каримнинг ўзбекча таржимаси / А. Мансур. — Тошкент : Тошкент ислом университети, 2001. — 672 б.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати : 5 жилдда / [тах. ҳайъати: А. Мадвалиев ва б.]. — Тошкент : Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2006—2008.
9. The Holy Bible : King James Version. — Oxford : Oxford University Press, 1611/2008. — 1400 p.
10. Вебер М. Протестантская этика и дух капитализма / М. Вебер. — Тюбинген : Mohr, 1904. — 206 с.
11. Nida E. A. Toward a science of translating / E. A. Nida. — Leiden : Brill, 1964. — 331 p.
12. British National Corpus (BNC) [Электронный ресурс] / Oxford Text Archive. — 2007. — Режим доступа : <https://www.natcorp.ox.ac.uk> — Дата обращения: 2024.
13. Davies M. Corpus of Contemporary American English (COCA) [Электронный ресурс] / M. Davies. — 2008. — Режим доступа : <https://www.english-corpora.org/coca> — Дата обращения: 2024.
14. Oxford English Dictionary : 2nd ed. — Oxford : Oxford University Press, 1989.